



O'ZBEKISTON JAMIYATIDA NIKOH SHARTNOMASINING O'RNI VA UNING HUQUQIY MADANIYATGA TA'SIRI.

Umurzakova Nargisa Muxtarovna

Ilmiy rahbar: Toshkent Davlat Agrar Universiteti
"Huquqshunoslik" kafedrasida dotsenti [Mobil: +998990129077.E-mail: nargisau71@gmail.com]

Meliboyeva Farida Murodilla qizi

Toshkent Davlat Agrar Universiteti "Agroiqtisodiyot, logistika va xizmatlar" fakulteti Yurisprudensiya yo'nalishi 2-kurs talabasi
[Mobil: +998889051305.E-mail: meliboyevafarida004@gmail.com]
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20372060>

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda nikoh shartnomasi institutining huquqiy tabiati va uning jamiyat huquqiy madaniyatiga ta'siri tahlil qilingan. Rivojlangan davlatlar tajribasi va sud-notarial statistikasi asosida sohadagi huquqiy nigilizm muammolari aniqlangan. Yakunda qonunchilikni takomillashtirish, e-notarius.uz tizimida raqamli shartnomalarni joriy etish va huquqiy targ'ibotni kuchaytirish bo'yicha aniq takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: nikoh shartnomasi, mulk rejimi, huquqiy madaniyat, qiyosiy tahlil, raqamli notariat.

Oila instituti har qanday jamiyatning barqarorligi va ma'naviy tayanchini belgilovchi fundamental tuzilma hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-bobi, 76-moddasida e'tirof etilganidek, "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega"¹. Biroq globallashtirish, bozor iqtisodiyoti taraqqiyoti va urbanizatsiya jarayonlari an'anaviy oilaviy munosabatlarning tarkibiy hamda huquqiy jihatdan transformatsiyaga uchrashini taqozo etmoqda. Ushbu sharoitda er-xotin o'rtasidagi mulkiy munosabatlarni tsivilizatsiyalashgan shaklda tartibga solish, oilaviy nizolarning oldini olish va jamiyatda huquqiy ongni yuksaltirishning o'ziga xos mexanizmi sifatida nikoh shartnomasi (prenuptial agreement) instituti namoyon bo'ladi. O'zbekiston huquq tizimiga yangi institut sifatida kirib kelgan ushbu huquqiy vosita nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, balki fuqarolarning huquqiy madaniyatini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish salohiyatiga ega. O'zbekiston Respublikasining amaldagi Oila kodeksi 29-moddasiga muvofiq, nikohlanuvchi shaxslarning yoki er va xotinning nikohda bo'lgan davridagi va (yoki) er va xotin nikohdan ajratilgan taqdirda ularning mulkiy huquq hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuvi nikoh shartnomasi deb hisoblanadi². Mazkur norma dispozitivlik prinsipiga asoslangan bo'lib, er-xotining qonunda belgilangan umumiy birgalikdagi mulk rejimini o'zgartirish va uni ulushli yoki alohida mulk rejimiga o'tkazish imkonini beradi. Shunga qaramay, milliy mentalitet, an'anaviy qadriyatlar va sotsiomadaniy qarashlar ta'sirida nikoh shartnomasini tuzish amaliyoti mamlakatimizda hamon past ko'rsatkichni tashkil etmoqda. Ko'plab yoshlar va ularning otionalari ushbu shartnomani "nikoh boshlanmasdan turib ajrashishga tayyorgarlik ko'rish" yoki "ishonchsizlik ramzi" sifatida talqin qiladilar. Bu esa jamiyatda huquqiy nigilizmning mavjudligi hamda oila munosabatlarida huquqiy vositalardan to'g'ri foydalanish ko'nikmasi yetarli darajada shakllanmaganligidan dalolat beradi.

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: "Adolat", 2023. – 76-modda. // Lex.uz elektron bazasi.

² O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – Toshkent: "Adolat", 1998. – 29-modda. // Lex.uz elektron bazasi

Maqolaning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda O'zbekistonda oilaviy ajrimlar soni ortib bormoqda va mulkiy nizolar sud amaliyotidagi eng murakkab ishlardan biriga aylangan. Nikoh shartnomasi tuzilmagan taqdirda, Oila kodeksining 23-moddasiga ko'ra, er-xotinning nikoh davomida orttirgan mol-mulklari ularning birgalikdagi umumiy mulki hisoblanadi va teng bo'linadi. Ammo zamonaviy jamiyatda tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatining kengayishi, er yoki xotinning intellektual mulk yaratishi, aksiyadorlik ishtiroki va raqamli aktivlar (kriptoalyutalar, startap loyihalar) kabi yangi mulk ob'ektlarining paydo bo'lishi an'anaviy "teng bo'lish" prinsipini qo'llashda bir qator iqtisodiy qiyinchiliklar va adolatsizliklarni yuzaga keltirmoqda. Nikoh shartnomasi esa bunday tavakkalchiliklarni sug'urtalash, biznes daxlsizligini saqlash va har ikki tomonning iqtisodiy manfaatlarini muvozanatlash uchun huquqiy kafolat hisoblanadi. G'arb davlatlari hamda rivojlangan Osiyo mamlakatlari (masalan, Buyuk Britaniya, AQSh, Singapur) tajribasiga nazar tashlasak, nikoh shartnomasi oila barqarorligini mustahkamlovchi va sud tizimidagi yuklamani kamaytiruvchi muhim omil sifatida tan olingan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi qo'mitasi (CEDAW) ham nikoh shartnomalarini oilaviy munosabatlarda ayollarning iqtisodiy huquqlari va mustaqilligini himoya qiluvchi muhim vositalardan biri sifatida baholaydi³. O'zbekistonda xotin-qizlarning iqtisodiy huquqlarini ta'minlash hamda oilaviy zo'ravonlikning (xususan, iqtisodiy tazyiqning) oldini olish doirasida nikoh shartnomasining o'rni yuridik va sotsiologik nuqtai nazardan chuqur tahlil qilinishini talab etadi.

Maqolaning predmeti — nikoh shartnomasi institutining huquqiy tabiati, uning milliy qonunchilikda tartibga solinishi (Oila kodeksining 30, 31, 32-moddalari), shuningdek, mazkur shartnomaning o'zbek oilalarining ijtimoiy-huquqiy hayotiga integratsiyalashuv darajasidir. Shuningdek, tadqiqotda nikoh shartnomasining fuqarolar huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishdagi funksional ahamiyati o'rganiladi. Oila kodeksining 30-moddasiga ko'ra, shartnoma majburiy tartibda notarial tasdiqlanishi lozim bo'lib, bu jarayonda notariuslarning roli er-xotinning huquq va majburiyatlari muvozanatini saqlashda juda muhimdir. Chunki 31-moddaning 5-qismida er va xotindan birini o'ta noqulay holatga solib qo'yuvchi yoki shaxsiy nomulkiy munosabatlarni cheklovchi shartlarni shartnomaga kiritish qat'iy qat'iy taqiqlangan. Jamiyatda huquqiy madaniyatning pastligi nikoh shartnomasiga salbiy mifologik qarashlarni yuzaga keltirmoqda. Fuqarolarning shartnomaviy munosabatlarga nisbatan ishonchini orttirish orqali oilaviy institutlar mustahkamligiga erishish mumkin. Milliy qonunchilikda nikoh shartnomasi faqat mulkiy munosabatlarni tartibga soladi. Xorijiy tajribadan kelib chiqib, shartnomaga bolalar tarbiyasi va maishiy majburiyatlarga oid (shaxsiy nomulkiy bo'lmagan elementlar bilan bog'liq) nomulkiy shartlarni qisman kiritish imkoniyatlarini o'rganish zaruriyati mavjudmi? Nikoh shartnomasi mavjud oilalarda ajrim holatida sud jarayonlari sezilarli darajada tez va nizosiz kechadi, bu esa davlat organlari va fuqarolar resurslarini tejaydi.

Maqolaning maqsadi — O'zbekiston jamiyatida nikoh shartnomasini qo'llashning hozirgi holatini tizimli tahlil qilish, uning oilaviy munosabatlar barqarorligi va fuqarolarning

³ BMTning Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi qo'mitasi (CEDAW). Oila munosabatlarining iqtisodiy oqibatlarini va ularning bekor qilinishi to'g'risidagi 29-sonli umumiy tavsiyasi (General recommendation No. 29 on Economic consequences of marriage, family relations and their dissolution), 2013. // BMT rasmiy sayti.

huquqiy madaniyatiga ta'sirini aniqlash hamda mazkur institutni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun maqolada milliy statistik ma'lumotlar tahlil qilinadi, sud amaliyoti va notarial idoralar hisobotlari o'rganiladi, shuningdek, aholi o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik so'rovnomalar natijalari umumlashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 29-32-moddalari hamda Fuqarolik kodeksining bitimlar to'g'risidagi umumiy qoidalari tizimli tahlil qilinganda, nikoh shartnomasining dualistik (ikki yoqlama) tabiati namoyon bo'ldi. Nikoh shartnomasi o'z mohiyatiga ko'ra fuqarolik-huquqiy bitim hisoblansa-da, u oila huquqi prinsiplari asosida shakllanadi va tartibga solinadi. Oila kodeksining 30-moddasiga binoan, ushbu shartnomaning notarial tartibda tasdiqlanishi majburiy shart qilib belgilangan. Fuqarolik kodeksining bitimlar shakliga oid qoidalariga ko'ra, mazkur majburiyatga rioya qilmaslik shartnomaning o'z-o'zidan haqiqiy emasligini keltirib chiqaradi. O'zbekiston qonunchiligida nikoh shartnomasining dispozitivlik darajasi faqat er-xotinning mulkiy munosabatlari doirasi bilan cheklangan. Oila kodeksining 23-moddasida belgilangan er-xotinning qonuniy mulk rejimi, ya'ni nikoh davomida orttirilgan mol-mulklarning umumiy birgalikdagi mulk (teng ulushli) hisoblanishi qoidasi nikoh shartnomasi orqali o'zgartirilishi mumkin. Normativ tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, milliy qonunchilik er-xotonga quyidagi uchta shartnomaviy mulk rejimini tanlash huquqini beradi:

➤ **Ulushli mulk rejimi.** Er-xotinning umumiy mulkdagi ulushlari qonunda belgilanganidek teng (50/50) emas, balki ularning shartnomadagi kelishuviga ko'ra (masalan, 70/30 yoki 60/40) aniq foizlarda taqsimlanadi.

➤ **Alohida mulk rejimi.** Nikoh davomida orttirilgan yoki orttiriladigan muayyan mol-mulklar kimning nomiga rasmiylashtirilgan bo'lsa, o'sha er yoki xotinning shaxsiy mulki hisoblanishi belgilab qo'yiladi. Bu rejim ayniqsa tadbirkorlik sub'ektlari hisoblangan er yoki xotin uchun biznes daxlsizligini ta'minlashda muhim huquqiy vositadir.

➤ **Birgalikdagi mulk shartlarini qisman o'zgartirish.** Bu rejimda umumiy mulk qoidasi saqlab qolinganda holda, faqat ayrim yirik ob'ektlar (ko'chmas mulk, avtotransport, qimmatli qog'ozlar) uchun maxsus egalik shartlari o'rnatiladi.

O'zbekiston qonunchiligidagi normalarning mukammallik darajasini aniqlash maqsadida Germaniya Fuqarolik kodeksi, Fransiya Fuqarolik kodeksi hamda Rossiya Federatsiyasi Oila kodeksining tegishli normalari qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining nikoh shartnomasi instituti kontinental (roman-german) huquq tizimiga to'liq mos keladi. Germaniya qonunchiligida (Ehevertrag) er-xotin nafaqat joriy mulk rejimini, balki ajrashgandan keyingi moddiy ta'minot (Unterhalt) hamda kasbiy pensiya jamg'armalarini tenglashtirish (Versorgungsausgleich) shartlarini ham shartnomada o'zgartirishi mumkin⁴. O'zbekiston qonunchiligida esa pensiya jamg'armalari yoki kelgusi iqtisodiy ta'minotni shartnoma orqali oldindan taqsimlashning aniq huquqiy mexanizmlari ishlab chiqilmagan. Fransiya huquq tizimi bilan qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, fransuz modelida nikohdan oldin muayyan mulk rejimini (Régimes matrimoniaux) tanlash majburiy

⁴ Bürgerliches Gesetzbuch (BGB) in der Fassung der Bekanntmachung vom 2. Januar 2002 (BGBl. I S. 42, 2909; 2003 I S. 738), zuletzt geändert durch Artikel 1 des Gesetzes vom 22. Februar 2024. Buch 4 (Familienrecht), Abschnitt 1 (Bürgerliche Ehe), § 1408 (Ehevertrag). Rasmiiy elektron baza: Gesetze-im-internet.de/bgb/___1408.

xarakterga ega bo'lib, notarial idoralar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi⁵. O'zbekistonda esa nikoh shartnomasini tuzish mutlaqo ixtiyoriy bo'lib, qonuniy mulk rejimi (shartnoma tuzilmagan holat) standart shakl sifatida amal qiladi. Rossiya Federatsiyasi Oila kodeksi bilan o'tkazilgan tahlil esa sub'ektlar tarkibi, shartnomaning qat'iy mulkiy xarakterga egaligi va uning huquqiy chegaralari jihatidan milliy qonunchiligimiz bilan deyarli bir xil modelga ega ekanligini ko'rsatdi⁶.

Tadqiqotning eng muhim qismi nikoh shartnomasiga kiritilishi qonunan taqiqlangan shartlar va ularning huquqiy chegaralarini aniqlash bilan bog'liqdir. Oila kodeksining 31-moddasi 5-qismiga asosan, milliy huquq tizimida shartnoma erkinligi prinsipi mutloq hisoblanmaydi va u jamoat tartibi hamda inson huquqlari himoyasi bilan cheklanadi. Tahlillar natijasida quyidagi huquqiy "qizil chiziqlar" aniqlandi:

1. Huquqiy va muomala layoqatini cheklash taqiqi - Shartnomaga er yoki xotinning mehnat qilish, ta'lim olish, muayyan yashash joyini tanlash yoki o'z xohishiga ko'ra tadbirkorlik bilan shug'ullanish huquqini cheklovchi har qanday bandni kiritish qat'iy man etiladi. Masalan, "Xotin erining ruxsatisiz professional faoliyat bilan shug'ullanmaydi" qabilidagi shartlar o'z-o'zidan haqiqiy emasdir.

2. Sud himoyasi huquqini cheklash taqiqi - Er-xotin o'rtasidagi shartnomada "Ajrashgan taqdirda tomonlar mulkiy da'vo bilan sudga murojaat qilmaydi" degan mazmundagi bandning o'rin olishi qonunga ziddir. Konstitutsiyaviy sud himoyasi huquqi shartnomaviy kelishuv bilan cheklanishi mumkin emas.

3. Shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga solish taqiqi - Anglo-sakson huquq tizimidan (AQSh, Buyuk Britaniya) farqli o'laroq, O'zbekiston huquqida er-xotinning shaxsiy xulq-atvori, vafodorlik majburiyatlari, oilaviy maishiy vazifalarni taqsimlashi shartnoma predmeti bo'la olmaydi. Chunki ahloqiy va hissiy munosabatlar (mehr, sadoqat) majburiy ijro etish va huquqiy sanksiya qo'llash mexanizmiga ega emas. Shu sababli, amaliyotda uchraydigan "Xiyonat qilgan tomon barcha mulkidan mahrum bo'ladi" degan shartlar sud tartibida haqiqiy emas deb topiladi.

4. Bolalarga nisbatan huquq va majburiyatlarni belgilash taqiqi - Nikoh shartnomasida "Ajrashish holatida bolalar otasi (yoki onasi) bilan qoladi" deb oldindan belgilash qonunan mumkin emas. Bolaning taqdiri va huquqlari shartnoma predmeti bo'la olmaydi; bu masala alohida kelishuv yoki bolaning manfaatlaridan kelib chiqqan holda sud tomonidan hal etiladi.

5. Tomonlardan birini o'ta noqulay ahvolga solib qo'yish taqiqi - Oila kodeksining 32-moddasiga ko'ra, agar shartnoma shartlari er yoki xotindan birini mutlaqo mulksiz qoldirsa yoki iqtisodiy jihatdan o'ta tang ahvolga solib qo'ysa (kavallik sharti), bunday shartnoma manfaatdor tomonning da'vosi bo'yicha sud tomonidan to'liq yoki qisman haqiqiy emas deb topiladi.

O'tkazilgan tizimli tahlil shuni ko'rsatadiki, nikoh shartnomasining faqat mulkiy xarakterga ega ekanligi oilaviy munosabatlarni iqtisodiy inqirozlardan va uzoq davom etadigan

⁵ Code civil des Français. Édition officielle. – Paris: Imprimerie Nationale, 1804 (Version consolidée au 1 janvier 2026). Livre III (Des différentes manières don't on acquiert la propriété), Titre V (Des contrats de mariage et des régimes matrimoniaux), Articles 1387-1397. Rasmiy elektron baza: Legifrance.gouv.fr.

⁶ Семейный кодекс Российской Федерации от 29.12.1995 № 223-ФЗ (ред. От 31.07.2024) // Собрание законодательства Российской Федерации. – 1996. – № 1. – Ст. 16. Глава 8 (Договорный режим имущества супругов), статьи 40-44. Rasmiy elektron baza: Sps ConsultantPlus.

sud nizolaridan himoya qiladi. Biroq jamiyatda huquqiy nigilizmning mavjudligi va nikoh shartnomasiga “ishonchsizlik ramzi” sifatida qaralishi ushbu institutning ommalashishiga to‘sqinlik qilmoqda. Huquqiy madaniyatni yuksaltirish nuqtai nazaridan, nikoh shartnomasi er-xotinga o‘z majburiyatlarini his qilish, mulkiy munosabatlarni his-tuyg‘ulardan xoli tarzda, qonuniy asosda rejalashtirish ko‘nikmasini shakllantiradi. Demak, qonunchilikda belgilangan cheklolar va huquqiy chegaralar shartnoma erkinligini bo‘g‘ishga emas, balki oilaning iqtisodiy zaif a‘zolarini (asosan xotin-qizlarni) huquqiy jihatdan himoya qilishga va oilaviy munosabatlarda ijtimoiy adolat muvozanatini saqlashga xizmat qiladi.

Xulosa. O‘zbekiston jamiyatida nikoh shartnomasi institutining o‘rni va uning fuqarolar huquqiy madaniyatiga ta‘siri bo‘yicha xulosa shuki, nikoh shartnomasi fuqarolik va oila huquqi kesishmasida joylashgan dualistik institut bo‘lib, u an‘anaviy oilaviy qadriyatlarni inkor etmaydi, balki ularni zamonaviy iqtisodiy munosabatlar sharoitida huquqiy jihatdan sug‘urtalaydi. Amaldagi qonunchilikda belgilangan “qizil chiziqlar” (shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga solish taqiqlari) oilaning iqtisodiy jihatdan zaif a‘zolarini (asosan xotin-qizlarni) va tadbirkorlik sub‘ektlari faoliyatini asossiz mulkiy da‘volardan samarali himoya qiladi. Sotsiologik so‘rovlar va statistik tahlillar jamiyatda nikoh shartnomasiga nisbatan stereotiplar (ishonchsizlik ramzi, bo‘lajak ajrimga tayyorgarlik) hamon kuchli ekanligini ko‘rsatdi. Bu holat aholi o‘rtasida huquqiy ong va madaniyatning shakllanish darajasi bo‘yicha tizimli muammolar mavjudligidan dalolat beradi. Biroq, nikoh shartnomasini tuzgan oilalarda mulkiy onglilik darajasi yuqori bo‘lib, bu ajrim holatlarida sud tizimidagi yuklamani va yillar davomida cho‘ziladigan nizolarni keskin kamaytiradi. Rivojlangan xorijiy davlatlar (Germaniya, Fransiya) tajribasidan farqli o‘laroq, milliy qonunchiligimizda er-xotinning kelgusi iqtisodiy ta‘minoti, kasbiy pensiya jamg‘armalarini taqsimlash hamda nikoh shartnomasining elektron shakllari bilan bog‘liq normalar huquqiy jihatdan to‘liq tartibga solinmagan.

Tavsiyalar

1. **Onlayn shartnoma konstruktorini yaratish.** Adliya vazirligining e-notarius.uz portali tarkibida nikoh shartnomasining turli mulk rejimlari (alohida, ulushli) bo‘yicha namunaviy raqamli loyihalarini (konstruktorini) joriy etish va masofaviy (elektron) rasmiylashtirish tizimini yo‘lga qo‘yish.

2. **Onlayn shartnoma konstruktorini yaratish.** Adliya vazirligining e-notarius.uz portali tarkibida nikoh shartnomasining turli mulk rejimlari (alohida, ulushli) bo‘yicha namunaviy raqamli loyihalarini (konstruktorini) joriy etish va masofaviy (elektron) rasmiylashtirish tizimini yo‘lga qo‘yish

3. **Majburiy notarial maslahat paketlari.** Notarial idoralarda shartnoma tasdiqlanishidan oldin er-xotinga har bir mulk rejimining kelgusi huquqiy va iqtisodiy oqibatlarini, shuningdek, qonuniy “qizil chiziqlar”ni tushuntiruvchi majburiy yuridik konsultatsiya (legal counseling) amaliyotini o‘rnatish.

Ta‘lim dasturlariga integratsiya qilish. FHDYo organlari huzuridagi “Yosh oila quruvchilar maktabi” o‘quv dasturlariga “Nikoh shartnomasining huquqiy prinsiplari va oila iqtisodiy xavfsizligidagi o‘rni” nomli majburiy va interaktiv o‘quv modulini kiritish.

Foydalanilgan adaboyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: “Adolat”, 2023. – 76, 37, 42, 55-moddalar. // Lex.uz.



2. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – Toshkent: “Adolat” 1998. – 23, 29, 30, 31, 32-moddalar. // Lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Birinchi va ikkinchi qismlar // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – 1996. – 24, 115, 354-moddalar va 60-bob. // Lex.uz.
4. O'zbekiston Respublikasining “Notariat to'g'risida”gi Qonuni. – Toshkent, 1996. // Lex.uz.
5. German Civil Code (Bürgerliches Gesetzbuch – BGB). Buch 4 (Familienrecht), Abschnitt 1 (Bürgerliche Ehe), § 1408 (Ehevertrag), § 1587 (Versorgungsausgleich). // German Federal Ministry of Justice.
6. Civil Code of the French Republic (Code civil des Français). Livre III, Titre V (Des contrats de mariage et des régimes matrimoniaux), Articles 1387-1397. // Legifrance Official Base.
7. Семейный кодекс Российской Федерации от 29.12.1995 № 223-ФЗ. Глава 8 (Договорный режим имущества супругов), статьи 40-44. // СПС КонсультантПлюс.